

**MAKTABLARDA BAHOLASH TIZIMLARIGA TAYYORGARLIK
JARAYONI TIZIMINI LOYIHALASHTIRISH.**

Xakimov Axrorbek Abdimaxamatovich

Toxirova Sarvinoz G'ayratjon qizi

Muhammadjonov Azamatjon

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona Filiali

Annotatsiya: *ushbu maqolada xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi reytingi, ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarish, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor, umumta'lim maktablarda xalqaro baholash tizimlariga tayyorgarlik jarayonini avtomatlashgan tizimini loyihalashtirish va yaratish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *dastur, reyting, ta'lim, jamiyat, avlod, sharoit, imkoniyat, maktab, xalqaro baholash, tizim.*

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jahon ta'lim reytinglarida mamlakatimizni yuqori pog'onalarga olib chiqish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Jumladan, PISA (The Programme for International Student Assessment)

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi reytingida O'zbekistonning 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishi ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoqda bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabning yanada oshib borishiga turtki bo'lmoqda.

Bunday talabning qondirilishi o'z navbatida yoshlar o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassislari aynan mana shunday talablarning bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalarni o'rganib chiqdi.

Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?

Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot.

TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring.

ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur. PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli

davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan.

PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi. PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.

PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi.

PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoring 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.

1. O'qish savodxonligi;
2. Tabiiy-ilmiy savodxonlik;
3. Kompyuter savodxonligi;
4. Matematik savodxonlik;
5. Moliyaviy savodxonlik.

PISA dasturi bo'yicha xalqaro arenada munosib o'rin egallash, bu shunchaki raqam emas, balki uning ortida mashaqqatli mehnat, ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, o'quv dasturlari va darsliklar, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minoti, bir so'z bilan aytganda, milliy ta'lim tizimining qanchalik tayyor ekanligi bilan bog'liq masala yotadi.

O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda qatnashishga kirishganiga bir yildan

ko'proq vaqt o'tdi va "o'tgan davr mobaynida qanday ishlar amalga oshirildi?" degan savol tug'ilishi tabiiy.

Umumta'lim muassasalarining xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishini ta'minlashga mas'ul bo'lgan alohida tashkilot — Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Milliy markaz zimmasiga umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, xalqaro baholash dasturlarida qayd etilgan natijalarni boshqa davlatlar bilan taqqoslash va boshqa mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan nufuzli xalqaro tashkilotlar o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilib, O'zbekistonning PISA va PIRLS dasturlarida ilk marotaba 2021-yilda ishtirok etishi rejalashtirildi.

Topshiriq namunalari matematik mazmun, kontekst va aqliy faoliyat turlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Masalan, "Plitka yotqizish" topshirig'ida berilgan savollarni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu topshiriq savollari matematik mazmun jihatidan miqdorlar, o'zgarish va munosabatlar, fazo va shakl turkumiga tegishli bo'lsa, kontekst nuqtai nazardan shaxsiy, kasbiy va ilmiy faoliyatga doir savollardan iborat. Soddaroq qilib aytganda, ushbu topshiriq ustachilik kasbiga doir bo'lib, unda o'quvchining turli ko'rinishdagi plitkalarni berilgan yuzaga mos ravishda terib chiqa olish qobiliyati sinab ko'riladi.

PISA tadqiqotining tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik yo'nalishiga oid video mahsulotlarda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalari, modeli, topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, topshiriqlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan. Jumladan, "Qushlar migratsiyasi" deb nomlangan topshiriqqa bag'ishlangan videodarsda topshiriqning uchta savoli batafsil bayon etilgan, ushbu savollar o'quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish, ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash, ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kabi kompetensiyalarini baholashi,

o'quvchilar ushbu savollarga javob berishlari uchun nafaqat fanning mazmuniga oid bilimlar, shuningdek, metodologik bilimlarga ham ega bo'lishlari zarurligi ta'kidlanadi.

Kreativ fikrlash bo'yicha "Taomlar festivali logotipi" mavzusidagi videodarsda kreativ fikrlashni baholash kompetensiyaviy modeli, o'quvchilarning ilmiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish hamda yozma va vizual ifodalay olishlarini baholash mezonlari hamda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar haqida so'z yuritiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda, qayd etilgan ishlarning davomi sifatida, qo'shimcha o'quv-metodik qo'llanmalar, topshiriqlar to'plami, axborotnoma, videodars va videoroliklar yaratish, shuningdek, tajriba-sinov jarayonlari uchun maxsus nazorat materiallarini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tojiboev, I., Rayimjonova, O. S., Iskandarov, U. U., Makhammadjonov, A. G., & Tokhirova, S. G. (2022). ANALYSIS OF THE FLOW OF INFORMATION OF THE PHYSICAL LEVEL OF INTERNET SERVICES IN MULTISERVICE NETWORKS OF TELECOMMUNICATIONS. *Мировая наука*, (3 (60)), 26-29.
2. Аверсьев, С. П., & Мамадалиев, Н. (2009). Применение модели пластического газа ХА Рахматулина для исследования процесса кратерообразования в плоской мишени при высокоскоростном ударе сферической частицы. *Космонавтика и ракетостроение*, (1), 134-144.
3. Qadamova, Z., Khakimov, A., & Sotvoldieva, D. (2023). APPLICATION OF LIST METHODS IN PRACTICE AND ITS ADVANTAGES. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 7(2), 43-47.
4. Toxirova, S. (2023). MA'LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR TUSHUNCHASI. *Engineering Problems and Innovations*.
ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1341>

5. Hakimov , A. (2023). MOBIL ILOVA RIVOJLANISHI. Engineering Problems and Innovations. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1336>
6. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI. (2023). Journal of Technical Research and Development, 1(2), 402-409. <https://jtrd.mcdir.me/index.php/jtrd/article/view/81>
7. Мамадалиев, Н. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ КРИТЕРИЕВ И ОГРАНИЧЕНИЙ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫХ К ПРОЦЕССУ И ОБРАБОТКИ ТЕЛЕВИЗИОННЫХ ИЗОБРАЖЕНИЙ:(сжатия цифрового потока видеосигнала в телевизионном канале связи). *Engineering problems and innovations*, 1(2), 38-42.
8. Мамадалиев, Н. А. (2020). Задача преследования для линейных игр с интегральными ограничениями на управления игроков. *Известия высших учебных заведений. Математика*, (3), 12-28.
9. МИКРОПРОЦЕССОРНЫЕ СИСТЕМЫ И ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ. (2023). Journal of Technical Research and Development, 1(2), 32-37. <https://jtrd.mcdir.me/index.php/jtrd/article/view/80>
10. Mahmudova , M., & Toxirova , S. (2023). MULTISERVISLI TARMOQ XAVFSIZLIGIDA NEYRON TARMOQLARINI O'RNI. Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions". извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1540>
11. Hakimov , A. (2023). MOBIL ILOVA RIVOJLANISHI. Engineering Problems and Innovations. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1336>
12. D.B. Sotvoldiyeva, A.A.Hakimov, & Z.E.Qadamova. (2023). PYTHONNING NUMPY MODULI YORDAMI BILAN CSV FAYLLARNI O'QISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 7(2), 39–42. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/891>

13. Abdimahamatovich, H. A., & Anatolyevich, O. V. (2022). SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. *Journal of new century innovations*, 11(1), 195-202.
14. Обухов Вадим Анатольевич, Тохирова Сарвиноз Гайратжон кизи, & Исахонов Хушнидбек Муродилжон угли. (2023). ПРОГРАММЫ ДЛЯ РАСПОЗНАВАНИЯ ТЕКСТА. *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 7(1), 52–57. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/749>
15. Mamadaliev, N. (2012). On the pursuit problem for linear differential games with distinct constraints on the players' controls. *Differential Equations*, 48(6), 867-880.
16. Мамадалиев, Н. А. (2010). О задачах преследования в линейных дифференциальных играх при наличии запаздываний. *Известия высших учебных заведений. Математика*, (6), 16-22.
17. Обухов Вадим Анатольевич, Тохирова Сарвиноз Гайратжон кизи, & Сотволдиев Асадбек Аброржон угли. (2023). МЕТОДЫ РАСПОЗНАВАНИЯ И ЭТАПЫ ОБРАБОТКИ ИЗОБРАЖЕНИЯ. *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 7(1), 40–44. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/757>
18. Muhammadjonov, A., & Toxirova, S. (2023). YARIMO 'TKAZGICHLARNING TURLARI. ICHKI VA TASHQI YARIMO 'TKAZGICHLAR. Research and implementation.
19. Авершьев, С. П., Липницкий, Ю. М., Макаревич, Г. А., Мамадалиев, Н., Пелипенко, Л. Ф., Половнев, А. Л., ... & Шokolov, А. Г. (2015). Пробой стенки гермоотсека космического аппарата высокоскоростной частицей с образованием акустических волн. *Ученые записки ЦАГИ*, 46(1), 42-51.
20. Хусанова, М. К., & Сотволдиева, Д. Б. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЕЦИМАЦИИ И ИНТЕРПОЛЯЦИИ ПРИ ОБРАБОТКЕ СИГНАЛОВ В ПРОГРАММЕ МАТЛАВ. In *ЦИФРОВОЙ РЕГИОН: ОПЫТ, КОМПЕТЕНЦИИ, ПРОЕКТЫ* (pp. 970-975).

21. Сотволдиева, Д. Б., & Хусанова, М. К. (2020). СРАВНЕНИЕ ФИЛЬТРОВ С КОНЕЧНОЙ ИМПУЛЬСНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКОЙ И БЕСКОНЕЧНОЙ ИМПУЛЬСНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКОЙ В ПРОГРАММЕ MATLAB. In ЦИФРОВОЙ РЕГИОН: ОПЫТ, КОМПЕТЕНЦИИ, ПРОЕКТЫ (pp. 840-845).
22. Qadamova , Z. (2023). Python dasturida Listlar bilan ishlash. List metodlari. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1321>
23. Qadamova , Z. (2023). MODERN METHODS OF WORKING WITH SCHOOLCHILDREN WHO CANNOT LEARN. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1322>
24. Qadamova, Z., & Sotvoldiyev, A. (2023). Ta'Lim Jarayoniga Innovatsion Ta'Lim Texnologiyalarini Qo'llashdagi Muammolar Va Ularni Rivojlantirish Omillari. *Golden Brain*, 1(27), 201-205.
25. Muhammadjonov, A., & TURLARI, T. S. Y. T. ICHKI VA TASHQI YARIMO 'TKAZGICHLAR. *Research and implementation*.–2023.20, 23.
26. Мамадалиев, Н. (2012). Линейные дифференциальные игры с интегральными ограничениями при наличии запаздываний. *Математические заметки*, (5), 750-760.